

**SHE’RIYATDA UNDALMALARING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

(Muhammad Yusuf she’rlari misolida)

**Minosidinov Sherzod,**

*O’zDJTU,*

*Umumiy tilshunoslik kafedrasи,*

*stajor o’qituvchi*

Insonlarning ma’naviy kamolotga yetishuvida, jamiyatning rivojida ona tilining o’rni juda muhimdir. Chunki, til eng asosiy aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Shu sababli, tilning ekspressiv ta’sir etuvchi vazifasi tilshunoslik va adabiyotshunoslilikni qiziqtiruvchi muhim ob’yektdir. Ekspressivlik xususiyatlari lingvistik tahlillar asosida tushuniladi. Demak, har qanday badiiy tahlil lingvistik qonuniyatlarga tayangandagina ilmiy asosga ega bo‘ladi. Bugun biz murojaat qilmoqchi bo‘lgan undalmalar ham “so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs”, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko‘ra kuchli stilistik vosita hisoblanadi”.

Undalmalar so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalaydi: ijobi, salbiy, neytral ko‘tarinki tantana ma’nolarini beradi. Bular o‘quvchining e’tiborini tortish uchun juda muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, undalmalar asosan so‘zlashuv, publisistik, badiiy uslublarda qo‘llanilgan, hozirgi kunda undalmalar murojaat birliklari ham deb atalmoqda va mohiyati jihatidan kengaytirib talqin qilinmoqda: “Murojaat birligi birikmasi semantik tarkibida “undash, da’vat qilish, buyurish” kabi semalar bilan bir qatorda “e’tiborni jalb qilish, birovga qarata aytilgan gap, chaqiriq”, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati kabi turli konnotativ ma’nolarni ifodalovchi semalar ham mavjud”.

E’tiborimizni Muhammad Yusuf she’riyatida murojaat birliklarining uslubiy vazifalariga qaratmoqchimiz. Muhammad Yusuf she’riyatida ham murojaat birliklari o‘ziga xos urin tutadi. Shoир undalmalarning turli xillaridan unumli foydalangan.

Aniqki, shoир asarlarida oddiy neytral undalmalar bir qatorda shunday undalmalar borki, ular emosional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni xarakterlaydi, unga munosabat bildiradi. Bu munosabat ijobi yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Masalan, nutqda “xotin”, salbiy munosabatni bildirsa “rafiqam”, “ayolim”, “jufti halolim” ijobiyni munosabatlarni bildiradi:

Bizni birovlardan ne kamimiz bor,

Ey jufti halolim, ne g‘amimiz bor.

Garchi bog‘lar kezib yurmadik birga,

Eslasak arzirli xush damimiz bor...

Muhammad Yusuf yuqorida keltirilgan “jufti halolim” murojaat birligida vafo, sadoqat, insoniylikka undovchi semalar ham mavjud.

Ma’lumki, baho xarakteri, undalmaning obrazliligi u bilan kelgan so‘zlarga bog‘liq. Obrazli aniqlovchilar, izohlovchilar bilan kelgan undalmalar nutq ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchini tez o‘ziga tortadi:

Yolg‘onchi yor, yolg‘onlaring tugar qachon?

Yolg‘on yig‘lab qo‘yanlaring tugar qachon,

Qachon menga bir iltifot aylagaysan,

Yolg‘onchi yor yolg‘onlaring tugar qachon? ...

Sifatlovchilarning uyushib kelishi ham undalmaning ma’nosini kuchaytiradi. Bu usuldan Muhammad Yusuf quyidagicha foydalanadi:

Ey gulbadan, ey kiyiknigoh

O‘zbekoyim nabiralari –

Oydin qizlar, oyjamol qizlar,

Oydan tushgan oq ro‘mol qizlar?

Yuqoridagi misralarda undalmalar murojaat birligi vazifasini bajarish bilan birga, qizlarning badanlarini gulga, qarashlarini kiyik nigohlariga, yuzlarini oyga, qizlarning pokligini esa “oydin qizlar, oq ro‘mol qizlar” sifatlovchili birikmalar orqali yoritadi. Bu ko‘chimlar murojaatlarning yanada go‘zal ifodalanishiga yordam beradi.

Undalmalar ta’sirchanligida ohang ham muhim o‘rin tutadi. Murojaat birliklari undov so‘zlar bilan kelganda bu yaqqol seziladi:

O‘ksimagine, o yurak,

Bo‘lma xomush, bo‘lma lol,

Mening otam – oqterak

Mening onam – majnuntol

Bundan tashqari, murojaat birliklarining baho xarakteristikasini ifoda qilishda qo‘sishimchalar ham muhim o‘rin tutadi. Egalik qo‘sishimchalari, kichraytirish-erkalash qo‘sishimchalari va boshqalar:

Kelinchagim, kulib-kulib ketdingizmi?

Yuragimni tilib-tilib ketdingizmi?

-chak kichraytuvchi, -m egalik qo‘sishimchasi bilan qo‘silib undalmaga o‘ziga xos ma’no bergen.

Yoki:

O‘sim jannatda-yu, do‘zaxda ko‘nglim,

Yalpizjon, sen o‘sigan o‘tloqda ko‘nglim

Yalpiz – jonsiz narsa, o’simlik turi. Shoir bunga xuddi jonlidek murojaat qilib, - jon insonlarga hurmat ma’nosini beruvchi qo’shimchasini qo’shib, juda go’zal murojaat birligini yaratmoqda.

Muhammad Yusuf she’rlarida undalmalarning gradatsiyasini ham kuzatish mumkin. Bunda undalmalar ma’no jihatidan yaqin yoki sinonim so‘zlar bo‘ladi:

Ey siz, soxta shon-shuhratadolari,  
Ey siz, el xatosi, yurt xatolari  
Mansab gadolari, pul gadolari!  
Murojaat ohangi oxirida ko’tariladi.

Muhammad Yusuf she’riyatida jonsiz narsalarga murojaat qilib, ular bilan suhbatlashib, e’tiborni torta oladi:

Qizg’aldog‘im, qirdan bo‘lak koshonang yo‘q,  
Kokil yoysang, yerdan bo‘lak toshoynang yo‘q,  
O‘ksib-o‘ksib turganingda o‘zim borib,  
Peshonangdan o‘pay desam, peshonang yo‘q.

Muhammad Yusuf ijodida joy nomi bilan bog‘liq murojaat birliklari, millat bilan bog‘liq murojaat birliklari, kasb-hunar, amal-mansab, unvon bilan bog‘liq murojaat birliklari, qarindoshlik murojaat birliklari, din bilan bog‘liq murojaat birliklariga ham ko‘plab misollar uchraydi.

Demak, badiiy til leksik, semantik, morfologik, sintaktik, stilistik, intonasion jihatlaridan shakllanganda, chinakam ma’noda boy bo‘la oladi. Muhammad Yusuf tilimizning go’zalligini boyligini, betakrorligini murojaat birliklaridan foydalanib ham ko‘rsatib bera oldi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ahmedova N.Sh. O’zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi . Fil.fan.nom.avteref. T, 2008.
2. Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo‘ng‘urov R, Rustamov H, O’zbek tili stilistikasi Toshkent , “o‘qituvchi”, 1983.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar. — T.: «Sharq», 2007. - 288 6.